



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

## GLOBAL TA'LIM VA MILLIY METODIKA TARAQQIYOTI

TOSHKENT – 2019

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI  
UNIVERSITETI**

# GLOBAL TA'LIM VA MILLIY METODIKA TARAQQIYOTI

**mavzusidagi III an'anaviy respublika ilmiy-amaliy anjumani  
materiallari**

TOSHKENT - 2019

## I. MILLIY METODIKA VA GLOBAL TA'LIM

1. L.Raupova. Til hodisalari talqini va ularning metodologik asoslari.....	7
2. Z.Mirzayeva. Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti: an'anaviylikdan zamonaviylikka.....	12
3. Q.Husanboyeva. Adabiy ta'lim metodikasi ilmidagi muammolar va ularning yechimi.....	17
4. X.Narxodjaeva. O'zbek terminologik leksikografiyasining shakllanishi va tartibga solish muammoları.....	26
5. G.Ziyodullayeva. Kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda qoidalar tizimi: muammo va yechimlar.....	31
6. S.Kambarova. O'quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish strategiyalari.....	36
7. K.Mavlonova, N.Xakimova. Ona tili darslarida o'quvchilarni xalqaro baholash dasturlariga tayyorlash.....	39
8. S. Kuldasheva. Lingvistik kompetensiyani shakllantirishda "7 qadam" strategiyasi.....	43
9. Y.Shirinova. Bank-moliya terminlari lug'atlarini yaratish va ta'limga tatbiq etish.....	48
10. G. Ergasheva. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish: muammo va mulohazalar.....	51
11. M.Sobirova. Bosma media matnlarining pragmalingvistik tahlili.....	54
12. N. Yuldasheva. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishning o'ziga xos jihatlari.....	58
13. M.Shomurotova. Formation of phonetic competence as a problem of foreign language teaching methods.....	61
14. D.Abdullabekova. OTMdA talabalarning MOOS asosida lingvistik kompetentligini shakllantirish.....	64
15. T.Mamatqulova T. O'tkir Hoshimov romanlarida davr voqealarining badiiy talqini.....	67
16. M.Mallayeva. Chingiz Aytmatov asarlarida global muammolar talqini....	72
17. M.Jalilova. Ingliz va o'zbek tillarida maqollarning gender xususiyatlari.....	77

6.Ushbu matndan chiqargan xulosangizni yozing.			1 ball bilan baholanadi. Xulosa 1-3 ball oralig'ida baholanadi.
--	--	--	--

Topshiriq bajarilgach, to'plangan jami ballar asosida o'qituvchi o'quvchiga tegishli bahoni qo'yadi. Ya'ni o'quvchi to'plashi mumkin bo'lgan eng yuqori ball (18 ball)ga nisbatan foiz hisobida o'quvchining bilimi, o'qish savodxonligiga baho beriladi.

Shuningdek, bunday matnlarni tanlayotganda ushbu matnlarning o'quvchining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlash: shu yoshdagi o'quvchilar uchun qiziqarli va zavqli bo'lishiga e'tibor qaratish, shuningdek, matn tarkibida qo'llanilgan badiiy tasviriy vositalariga o'quvchilar e'tiborini qaratuvchi topshiriqlarni ishlab chiqish mumkin.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. <http://www.marifat.uz>
2. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov V., Jo'rboyeva Z. Ona tili: Umumta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. To'ldirilgan 4-nashri. – Toshkent: Ma'naviyat, 2015. – 224 b.

## LINGVISTIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHDA

### “7 QADAM” STRATEGIYASI

S. Kuldasheva, ToshDO'TAU o'qituvchisi

Ona tili o'qituvchisi oldida o'quvchilarni mustaqil fikrlay oladigan, nutq va muloqot madaniyati rivojlangan, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi shakllangan shaxs sifatida tarbiyalash vazifasi turishini dars mashg'ulotining har bir soniyasida his qila olishimiz va faoliyatimizni shunga yo'naltirishimiz zarur. Men bugun kichkina tajribamdan kelib chiqib o'quvchi uchun farqlash murakkab kechadigan shaklan o'xhash leksik va lug'aviy birlklarni oson tushuntirish va bu bilan birga mustaqil fikrlash kompetensiyasini shakllantirish to'g'risida to'xtalmoqchiman.

Shaklan o'xshash birliklarni tushuntirishda tayanch kompetensiyalar bilan bir qatorda mustaqil va ijodiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish quyidagicha amalga oshirilishi mumkin. Buni yetti bosqichdan iborat loyiha asosida olib boramiz. Ushbu loyihani "7 qadam" deb nomladik:

1. Kuzatish
2. Kengaytirish
3. Umumiyligi
4. Farqi
5. Jamlash
6. Qo'llash
7. Xulosa

Ma'lumki, ba'zi o'rinnarda so'z birikmasi, qo'shma fe'l, (fe'l+fe'l qolipida bo'lganda) hamda ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalari bir xil grammatik shaklda kelishi mumkin. Mazkur birliklarning shaklan bir-biriga o'xshaganligi o'quvchini chalg'itib qo'yishi tabiiy holat. Shu sababli ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi va uning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish uchun, avvalo, o'quvchilarni 3 kichik guruhga bo'lib, loyihani "7 qadam"da amalga oshirish mumkin. Dastlabki *misol* bosqichida harakat tarzining ikki xil (yetakchi fe'l -a//y, -(i)b) shakliga misol beriladi. Bu 1-qadam hisoblanadi.

1-qadam: <i>Kuzatish</i>	<i>o'qib chiqmoq, kula boshlamoq</i>
--------------------------	--------------------------------------

Keyingi qadamda so'zlar qatori o'quvchilar yordamida kengaytirilib doskada yoziladi. Ushbu misolga shaklan o'xshaydigan qo'shma so'z, ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi, so'z birikmasi va iboralar ham qo'shib yoziladi. Ikki fe'lidan iborat birlikning oldingisi ravishdosh shaklida bo'lishi talab qilinadi, xolos.

2-qadam: <i>Kengaytirish</i>	<i>o'qib chiqmoq, kula boshlamoq, tashlab yubormoq, aytib qo'ymoq, sotib olmoq, yozib tashlamoq, borib kelmoq, olib kelmoq, kulib yubormoq, jo'shib kuylamoq, baqirib gapirmoq, kulib so'zlamoq, o'ylab gapirmoq, kelib aytmoq.</i>
---------------------------------	---

Keyingi qadamda berilgan misollarning umumiy jihatlari topiladi, ya'ni o'quvchini chalg'itayotgan holat faqatgina shakl ekanligiga e'tibor qaratiladi.

3-qadam: <i>Umumiyligi</i>	Fe'l + fe'l birikuvidan tashkil topgan birlik Oldingi fe'l ravishdosh shaklida, keyingi fe'l harakat nomi shaklida
-------------------------------	---

4-qadamda o'quvchilarga jadval tarqatiladi. O'quvchilar mustaqil ravishda birliklarning farqini aniqlashga harakat qilishadi.

4-qadam: <i>Farqi</i>	1-guruh. Har ikkala qismi o'zining lug'aviy ma'nosini saqlagan, bitta so'roqqa javob bo'ladigan (masalan: borib keldi – <i>nima qildi?</i> – ham bordi, ham keldi mazmunidagi) birliklarni aniqlaydi.  2-guruh. Ikkinchi qismi o'z ma'nosida qo'llanilmagan, bitta so'roqqa javob bo'ladigan (masalan: o'qib chiqdi – <i>nima qildi?</i> – o'qidi, lekin chiqmadidi, balki o'qishni tamomladi, tugatdi mazmunidagi) birliklarni aniqlaydi.  3-guruh. Har ikkala qismi o'zining lug'aviy ma'nosini saqlagan, alohida so'roq olib har xil gap bo'lagi vazifasida kela oladigan (masalan: jo'shib kuyladi – <i>qay tarzda?</i> – jo'shib, <i>nima qildi?</i> – kuyladi mazmunidagi) birliklarni aniqlaydi.
-----------------------	---

5-qadamda berilgan birliklarni guruhlarda jamlaymiz.

5-qadam: <i>Jamlash</i>		
1-guruh	2-guruh	3-guruh
sotib olmoq	tashlab yubormoq	jo'shib kuylamoq
borib kelmoq	aytib qo'ymoq	baqirib gapirmoq
olib kelmoq	yozib tashlamoq	kulib so'zlamoq
kelib aytmoq	kulib yubormoq	o'ylab gapirmoq
–	o'qib chiqmoq	–
–	kula boshlamoq	–

6-qadamda amalda qo'llab ko'ramiz. O'quvchilar gap tuzishadi.

6-qadam: <i>Qo'llash</i>
1. Akam menga do'kondan kitob <i>olib keldi</i> ( <i>ham oldi, ham keldi</i> ).
2. "O'tkan kunlar" asarini <i>o'qib chiqdim</i> ( <i>o'qidim, lekin chiqmadim</i> ).


### 3. "Vatan" qo'shig'ini iftixor bilan *jo'shib kuyladik*.

7-qadamda xulosa sifatida qoida keltirib chiqariladi.

#### 7-qadam: *Xulosa*

Qo'shma fe'llarning har ikkala qismi o'zining lug'aviy ma'nosini saqlagan bo'ladi va bitta so'roq oladi. Masalan: olib keldi (ham oldi, ham keldi), ikkinchi qismi o'z ma'nosida qo'llanilmaganda, ko'makchi fe'lli so'z shakli hosil bo'ladi va bitta so'roq oladi. Masalan: kulib yubordi (kuldi, lekin yubormadi). 3-qatordagi so'zlar alohida so'roq olganligi uchun so'z birikmasini hosil qildi. Masalan: kulib so'zladi (qay holatda so'zladi? – kulib (hol), nima qildi? – so'zladi (kesim)).

Ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalarida atash ma'nosini yo'qotgan fe'l tushirib o'qilsa ham, ma'noga putur yetmaydi:



Ammo tilning boshqa birliklarida bunday holat kuzatilmaydi. Masalan, "olib keldi"ning o'rniga "oldi", "sotib oldi"ning o'rniga "sotdi", "jo'shib gapirdi"ning o'rniga "jo'shdi" qo'llanilganda, ma'no butunlay o'zgaradi.

Ko'makchi fe'llarning xususiyatlari ochilgandan so'ng, darslikdagi qoida bilan fikr isbotlanadi.

Shundan so'ng ko'makchi fe'lning ma'no turlari, yetakchi va ko'makchi fe'l tarkibida bo'lishsizlik, nisbat, shaxs-son va zamon qo'shimchalarining kelishi haqida bat afsil ma'lumot beriladi.

ESDA SAQLANG. Ko'makchi fe'lni qabul qiluvchi ravishdosh yetakchi fe'l hisoblanadi. Ko'makchi fe'l faqat yetakchi fe'l bilan birgalikda qo'llanadi. Ana shu xususiyati bilan mustaqil qo'llanuvchi

*olmoq* (*xatni olmoq*), *tugatmoq* (*o'qishni tugatmoq*), *turmoq* (*o'rnidan turmoq*), *tashlamoq* (*qog'oz tashlamoq*) fe'llaridan farq qiladi [1].

Ko'makchi fe'llar	Yetakchi fe'l shakli	Ma'no ifodalashi	Misol
<i>boshlamoq</i>	<i>-a//y</i>	harakatning boshlanishi	<i>o'qiy boshladi</i>
<i>olmoq</i>	<i>-a//y</i>	imkoniyat mavjudligi	<i>yoza oladi</i>
<i>yotmoq,</i> <i>yurmoq,</i> <i>turmoq</i>	<i>-(i)b</i>	harakatning davomiyligini	<i>aytib yurmoq</i>
<i>yubormoq,</i> <i>tashlamoq,</i> <i>qo'yomoq</i>	<i>-(i)b</i>	harakatning tez va oson bajarilishini	<i>aytib qo'yomoq</i>
<i>chiqmoq</i>	<i>-(i)b</i>	harakatning to'la yakunlanganini	<i>o'qib chiqmoq</i>

So'ng mavzu bilan bog'liq qo'shimcha ma'lumotlar berilishi mumkin.

Maktab darsligida zamon, shaxs-son qo'shimchalari faqat ko'makchi fe'llarga qo'shiladi, degan ma'lumot berilgan. O'qituvchi ba'zan yetakchi va ko'makchi fe'llar juftlashib kelganda, zamon, shaxs-son qo'shimchalari har ikkalasining tarkibida kelishi mumkinligini ta'kidlab o'tishi shart, aks holda o'quvchi juftlashgan holda uchraydigan ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi haqidagi tushunchaga ega bo'lmay qoladi. M: aytib qo'ydim – aytdim-qo'ydim.

O'quvchi "7 qadam"da so'z birikmasi, ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi va qo'shma so'zni (shaklan o'xhash holatda kelganda) bir-biridan farqlash malakasini hosil qiladi. Ko'makchi fe'l haqidagi barcha ma'lumotlar shu tariqa ochib berilsa, tayanch so'zlarni o'quvchining ongiga oson singdirishga, o'quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlash, eslab qolish kompetensiyasining shakllanishiga erishish mumkin.

Mazkur loyihadan tilshunoslikning boshqa bo'limlaridagi mavzularni tushuntirishda ham unumli foydalanilsa, jumladan, so'zning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarni tushuntirishda, ko'p ma'noli va omonim so'zlarning farqini o'quvchiga yetkazib berishda katta natija beradi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, D.Nabiyeva. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. – T.: Tasvir, 2017.
2. A.Nurmonov va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili (3-bosqichlar uchun darslik). – T.: Ilm ziyo, 2010.
3. M. Qodirov, H. Ne’matov va b. Ona tili (8-sinf uchun darslik). – T.: Cho‘lpon, 2014.

## BANK-MOLIYA TERMINLARI LUG‘ATLARINI YARATISH VA TA’LIMGA TATBIQ ETISH

*Y.Shirinova, ToshDO ‘TAU o‘qituvchisi*

O‘zbek tilshunosligi, xususan terminologiyasi va leksikografiyasi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri sohalarga oid lug‘atlarni yaratish va bevosita ta’lim jarayoniga tatbiq etishdan iborat. “Bu haqda gapirganda, birinchi navbatda, fundamental fanlar, zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, sanoat, **bank-moliya tizimi**, yurisprudensiya, diplomatiya, harbiy ish va shu kabi o‘ta muhim tarmoqlarda o‘zbek tili o‘zining haqiqiy o‘rnini egallashiga erishish, shu maqsadda zamonaviy darsliklar, etimologik va qiyosiy **lug‘atlar** yaratish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish oldimizda muhim vazifa bo‘lib turganini qayd etish lozim” [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyaevning 2017 yil 7 fevraldag‘i “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi ПФ-4947-sonli farmonida ham barcha sohalar rivoji, jumladan, ilm-fan sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar, loyihalar samaradorligini oshirish hamda bank-moliya tizimini yanada takomillashtirish masalalari muhimligi alohida qayd qilib o‘tilgan. Bank-moliya sohasiga doir mavjud lug‘atlar [2; 5; 6.] tahlil qilinganda ularning aksariyati hajman kichik bo‘lib, kam sonli (o‘rtacha 300 tagacha) terminni qamrab olganligi, hajmi yirikroq va ko‘p sonli terminlarni qamrab olganlari [3; 4.] esa rus tilida ekanligi, qolaversa, lug‘atlarda berilgan izohlar tahlilga tortilgan darslik va qo‘llanmalardagi [7; 8.] mazmunni to‘liq ifodalamaganligi ko‘zga tashlanadi. Shu kabi bo‘shliqlarni to‘ldirish maqsadida bank-moliya terminlarining izohli va ingliz, rus tillaridagi